

# Humans mobil ilovasida “C2C (card to card) o’tkazmalarni amalga oshirganlik uchun foydalanuvchi komissiyasining chegarasini o’zgartirilishi” Aksiyasi qoidalari (yangi tahrirda).

13 may 2024

Humans mobil ilovasida “C2C o’tkazmalarni amalga oshirganlik uchun foydalanuvchi komissiyasining chegarasini o’zgartirilishi” aksiyasi “Maroqand” MChJ, manzil: Toshkent sh., Mirzo Ulug’bek tumani, Navnihol ko’ch., 86 uy, STIR 305465762 (UPAY) va “Humans” Mas’uliyati cheklangan jamiyati, manzil: 100047, O’zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko’chasi, 2 B uy, STIR 306624856 (Humans) o’rtasida Humans Sodiqlik Dasturi doirasidagi qo’shma aksiyasi hisoblanadi.

## 1. AKSIYA HAQIDA MA’LUMOT

1.1. Ushbu Qoidalar matnida bosh harflardan boshlanib foydalaniladigan so’zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma’nosi <https://terms.upay.uz/oferta/> saytida joylashtirilgan UPAY To’lov servisining Ommaviy ofertasida, [www.humans.uz](http://www.humans.uz) saytida joylashtirilgan Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalarida, “Humans mahsulotlari va xizmatlari vitrinasi” xizmatidan foydalanish Qoidalarida keltirilgan, agar ushbu Qoidalarda boshqacha ma’no berilmagan bo’lsa.

1.2. Aksiya ishtirokchilari — «Humans mahsulotlari va xizmatlari vitrinasi» foydalanuvchilari bo’lgan, Humans mobil ilovasiga bank kartasini bog’lagan va Qoidalarning 2 bo’limida sanab o’tilgan amallarni bajargan jismoniy shaxslar mijozlar.

1.3. Aksiya o’tkazilish hududi: O’zbekiston Respublikasi.

1.4. Yangi tahrirdagi Aksiya o’tkazilish davri: 13.05.2024dan muddatsiz.

1.5. C2C o’tkazma — Aksiyaning ushbu Qoidalari maqsadida bu Aksiya Ishtirokchisining boshqa jismoniy shaxsga pul mablag’larini o’tkazishni amalga oshirish.

## **2. AKSIYA TAVSIFI**

2.1. Ushbu Qoidalarga rioda qilgan holda, Aksianing «Super VIP» paketisiz Ishtirokchilari agar Aksiya Ishtirokchisining barcha C2C o'tkazmalarining umumiyligi miqdori kalendar oyi davomida 50 000 000 (ellik million) so'mdan oshmasa, C2C o'tkazmalarni mijozlik komissiyasisiz amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2.2. Ushbu Qoidalarga rioda qilgan holda, «Super VIP» paketini ulagan Aksiya Ishtirokchilari C2C o'tkazmalarni mijozlik komissiyasisiz amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2.3. 13.05.2024 yildan boshlab agar Aksianing «Super VIP» paketisiz Ishtirokchisining kalendar oyi davomida barcha C2C o'tkazmalarining umumiyligi miqdori 50 000 000 (ellik million) so'mdan oshsa, bunday Aksiya Ishtirokchisi Aksiya o'tkazilishi davomida quyidagi jadvalga ko'ra miqdorlarda C2C o'tkazmalarni amalga oshirganda, foydalanuvchi komissiyasini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi:

<b>C2C_yo'nalish</b>	<b>50 000 000 so'mdan keyin foydalanuvchi komissiyasi</b>
Uzcard kartadan Uzcard kartaga	0,35%
Uzcard kartadan Humo kartaga	0,35%
Humo kartadan Humo kartaga	0,35%
Humo kartadan Uzcard kartaga	0,35%
Visa kartadan Uzcard kartaga	0,35%
Visa kartadan Humo kartaga	0,35%

Bunda Jadvalda ko'rsatilgan komissiyalar faqatgina Aksiya Ishtirokchisi tomonidan C2C o'tkazmalarda Aksiya Ishtirokchisining kalendar oyi davoimidagi C2C o'tkazmalari umumiyligi miqdori 50 000 000 (ellik million) so'mga yetganda, olinadi.

2.4. Aksiyada «Humans mahsulotlari va xizmatlari vitrinası» servisining amaldagi Mijozlari va ularning servisdan foydalanishi Humans tomonidan to'xtatilmagan Mijozlar deb hisoblanadigan Ishtirokchilari ishtirok etishi mumkin.

2.5. Aksiya o'tkazilish davrida C2C o'tkazmalar amalga oshirilganligi uchun Keshbek berilmaydi.

2.6. Aksianing bitta Ishtirokchisining C2C o'tkazmalari soni cheklanmagan.

### **3. YAKUNIY QOIDALAR**

3.1. Ushbu yangi tahrirdagi Qoidalar ular Humans Saytida joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. Humans va UPAY Humans Saytida tegishli xabarni joylashtirish orqali xabar berib, ushbu Qoidalarni bir tomonlama tartibda o'zgartirishlari, Aksiyani uzaytirishlari yoki bekor qilish huquqiga ega. Xabarnoma sanasi deb Humans Saytida tegishli axborotning joylashtirilish sanasi hisoblanadi. Tegishli axborotning Humans Saytida joylashtirilishi vaqtidan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya esa uzaytirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Ishtirokchi tomonidan Humans mobil ilovasida C2C o'tkazmaning amalga oshirilishi jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan oferta hisoblanadigan Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz rozi ekanligini bildiradi.